

INKLYUZIV TA'LIMDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA
CHET TILINI O'QITISH**Djurayeva Sohiba Barat qizi**

JDPU Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Xudoynazarova Surayyo Utkirbek qizi

Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14185229>**Anotatsiya**

Maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida umumta'lim maktablariga imkoniyati cheklangan bolalarga chet tilini o'rgatish xususiyatlari muhokama qilinadi . Maqolada ushbu bolalarga chet tilini samarali o'rgatish usullari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, chet tili, imkoniyati cheklangan bolalar, motivatsiya.

Globalashuv sharoitida mehnat bozori chet tilini biladigan mutaxassislariga muhtoj bo'lib , bugungi kunda nafaqat sog'lom shaxslar balki, imkoniyati cheklangan insonlar tomonidan xorijiy tillarni o'zlashtirilishi ularning kelgusida muvaffaqiyatli o'qishi va ish bilan ta'minlanishi uchun imkoniyatlar yaratmoqda. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chet tilini o'qitishning optimal tashkiliy shakllari, didaktik usullari va samarali texnologiyalarini, ularning turli xil ta'lim ehtiyojlarini hisobga olgan holda tanlash masalasi dolzarbdir. Ushbu maqolada alohida ta'limga muhtoj bolalar uchun chet tillarini o'qitishni takomillashtirishga yordam beradigan o'rganishni didaktik qo'llab-quvvatlash va samarali ta'lim texnologiyalarini qo'llashga doir ko'rsatmalar berib o'tilgan.. boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun xorijiy tilda o'qitishning tashkiliy shakllarini (frontal, juftlik, guruh, individual) o'zgartirish zarurligi asoslanadi . Ko'rish, eshitish va tayanch-harakat a'zolarida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni chet tilidagi nutqiy faoliyatga jalb qilish uchun zarur bo'lgan asosiy didaktik materiallar mavjud bo'lib, darslar maqsadi va mazmunidan kelib chiqqan holda qo'llaniladi. Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarga o'tiladigan chet tili darslarida bolalar salomatlikni saqlaydigan, umumrivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish zarurligi bayon etilgan. chet tilini o'zlashtirish jarayonida alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarning bilim faolligini oshirish maqsadida interfaol va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muhimdir. Maktabda chet tilini muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy omillaridan biri bu bolalarning butun o'quv kursi davomida chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyasidir. Zamonaviy o'qituvchi bolalarning motivatsion sohasining xilma-xilligi haqida tasavvurga ega bo'lishi , shuningdek, motivatsiyasiga ta'sir qilish va chet el tilini o'rganish uchun barqaror motivatsiyani shakllantirishga hissa qo'shishning turli usullarini bilishi

kerak. V.A.Ivannikov, E.P.Ilyin, L.Festinger, X.Xekxauzen kabi olimlar motivatsiya hodisasini aniqlashning umumiy psixologik yondashuvlari ko'rib chiqdi. Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan chet tilini o'rganish motivatsiyasining eng ta'sirli psixologik-pedagogik kontseptsialari tahlil qilindi: R. Gardnerning integrativ va instrumental motivatsiya kontseptsiyasi, R. Klementning "tilshunoslik ishonchi" kontseptsiyasi boshlang'ich sinf o'quvchilari va o'smirlarda chet tilini o'rganish motivatsiyasini rivojlantirish xususiyatlarining zamonaviy psixologik-pedagogik xususiyatlari tadqiq qilingan. Zamonaviy maktab o'quvchilari orasida o'rganilayotgan motivatsiya turining asosiy xususiyatlari quyidagilar: pragmatik motivatsiya, mavzuni o'zini o'zi tasdiqlash usuli sifatida o'rganish, shaxsiy manfaat olish, shaxsiy farovonlikka erishish vositasi, majburlash motivatsiyasi, shikoyatlardan qochish istagi bilan tavsiflanadi. Maktab yoshida chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiya hodisasining tuzilishini aniqlashning kontseptual yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Chet tilini o'qitish motivatsiyasini o'rganishning pedagogik va psixologik jihatlari va imkoniyati cheklangan o'quvchilari uchun maxsus, integratsiyalashgan va inklyuziv ta'lim kontekstida aniqlangan muammoni rivojlantirish istiqbollari tahlil qilinadi. Maktabda chet tili darslarida o'quvchilarni rivojlantirish maqsadga muvofiq motivlar asosida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tilini o'zlashtirishda motivatsiyasini oshirishning ba'zi usullarini taqdim etamiz. Bunday usullardan mezon asosida baholash texnologiyasini, ta'limni individuallashtirish tamoyilini amalga oshirish orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish, chet tili darslarida interfaol xizmatlardan foydalanish, ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish, va aks ettirish texnologiyalari, affektiv yondashuv va boshqalarni qayd etishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining chet tilini o'zlashtirishda motivatsiya muammosini to'liq fanni o'zlashtirishga yordam bermaydi, imkoniyati cheklangan bolalar uchun moslashuvchan ta'lim muhitini yaratish kerakki, o'quv jarayoni bolalar uchun qiziq va samarali bo'lsin. Bunda albatta pedagog bolalarning pedagogic-psixologi xususiyatlarini, yoshini, nuqson darajasini va qobiliyatlarini inobatga olishi kerak, shunda ta'lim jarayoni manfaatli bo'ladi. Bugungi kunda ingliz tili o'qituvchilari Amerika Qo'shma Statlari, Angliya pedagoglari tajribasiga tayangan holda quyidagi innovatsion metodlardan foydalanib kelishmoqda:

– “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving) bu usulni qo'llash uchun hikoyaning boshlanishi o'qib beriladi qanday yakun topishi o'quvchilar, talabalar hukmiga havola qilinadi;



– “Quvnoq topishmoqlar” (Merry Riddles) o’quvchilarga topishmoqlar o’rgatish Ingliz tilini o’rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o’zlariga notanish bo’lgan so’zlarni o’rganadilar va o’ylab topishmoq javobini topadilar;

– “Tezkor javob” (Quick answers) o’tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi;

– “Chigil yozdi” (“Warm-up exercises”) o’quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o’yinlardan foydalanish;

– “Pantomima” (pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo’lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, talabalar charchagan paytda foydalanilsa bo’ladi;

– “Hikoya zanjiri” (a chain story) usuli o’quvchilarning og’zaki nutqini o’stirishda yordam beradi;


– “Rolli o’yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo’llanilishi mumkin. Hunarga o’rgatish uchun “Interpreter”, “Translator”, “Writer”, “Poet” kabi kasbdagi kishilar darsda ishtirok etishib o’quvchilar bilan suhbatlashishlari mumkin;

– “Allomalar yig’ini” (Thinkers meeting) U.Shekspir, A.Navoiy, R.Burns kabi shoirlar va yozuvchilarni “taklif qilish” mumkin. Bunday paytda ular aytib ketgan hikmatli so’zlardan darsda foydalanish yoshlarni komil inson bo’lib tarbiyalanishiga yordam beradi;

– “Rasmlar so’zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo’lib, ingliz tilini o’rgatishda, talaba, o’quvchilarning og’zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim;

– Kviz kartochkalari (quiz cards) o’quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma talabalar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

Ko’rib chiqqanimizdek, har bir innovatsion texnologiya o’ziga xos afzallikjihatlariga egadir. Bunday usullarning barchasida o’qituvchi va o’quvchi o’rtasidagi hamkorlik, o’quvchining ta’lim jarayonidagi faol harakati ko’zda tutiladi. Xulosa qilib aytganda, Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo’llash natijasida o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to’g’ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o’quvchida bilimga ishtiyoq uyg’otadi. O’quvchi darslarga puxta hozirlik ko’rishga intiladi. Bu esa o’quvchilarni ta’lim jarayonining faol sub’yektlariga aylantiradi. Ta’lim tizimi o’z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shaxsni tarbiyalashni vazifa qilib qo’yar ekan, kelgusida biz bo’lajak o’qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo’llarini yanada





mukammalroq ishlab chiqshimiz bilan o'z xissamizni qo'shishimiz mumkin. Demak, o'quvchilarga ingliz tilini innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar orqali o'rgatish ularda bu tilni o'rganish uchun, mavzu yuzasidan bilim, ko'nikma, malakalar hosil bo'lishiga xizmat qiladi.

References:

1. M.Satimova "O'quvchilarga ingliz tilini o'qitishda innovatsion metodlardan foydalanishning ahamiyati" Educational Research in Universal Sciences
2. Смоловик Ольга Васильевна "обучения иностранному языку в условиях инклюзивного образования" УДК 159.922.76:616.89
3. Сигал Н.Г., К(П)ФУ "Обучение иностранному языку детей с ограниченными возможностями здоровья в системе инклюзивного образования"

